



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI



**BOSHLANG'ICH TA'LIM METODOLOGIYASI:
MUAMMO, TADQIQOT VA YECHIMLAR
mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari**



**2025-yil 15-noyabr,
Navoiy shahri**

emas, balki o'quvchini fikrlovchi, izlanishga moyil, ijodkor va muloqotga ochiq shaxs sifatida shakllantirish maktabidir. Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish darslarni jonlantiradi, o'quvchining o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va uni XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxsga aylantiradi. O'qituvchi bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki yo'l boshchi, yo'naltiruvchi va ilhomlantiruvchi shaxs bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil, 29 dekabr, 6 bet.
2. Xoliqova D. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. - .: TDPU nashriyoti, 2021. 17-b.
3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. III qism. Baynazarova D.D. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 96 b.
4. Karimova N., Abduqodirova S. Ona tili ta'limida interfaol metodlar. – Toshkent, 2022. 26-b.
5. Jonibekova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. – Samarqand: “Sharq”, 2020. – 32-b.
6. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism. D. Baynazarova – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 33 b.

MAQOLLAR BADIY TAFAKKURNING TIPIK IFODASI

Kodirova Saodat Abdiraximovna
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedras
f.f.f.d.(PhD), dotsenti
Navoiy davlat universiteti
saodat.abduraximovna@gmail.com

Annotatsiya: Maqollar xalq og'zaki adabiyotining qadimiy janrlaridan biri sifatida turli fanlar – tilshunoslik, xalq og'zaki ijodi, madaniyatshunoslik, falsafa, psixologiya kabi fanlarda keng tadqiq etilgan. Har bir yondashuv maqollarning ma'no qatlamlariga turli nuqtai nazardan yondashadi, ularning serqirra mohiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: Tipologik, tematik-kompozitsion, intertekstual, stilistik.

Maqollar xalq ijodining badiiy-falsafiy tafakkurini mujassam etuvchi birliklardan biri sifatida nafaqat folklor, balki adabiyotshunoslik, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tahlil etiladigan muhim paremiologik birliklardir. Ularda milliy dunyoqarash, poetik obrazlar, axloqiy konsepsiyalar, vaqt va makon tuyg'ulari, falsafiy qarashlar, estetik ideallar mujassamlashgan. Shu sababli maqollarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishda bir necha nazariy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy-estetik yondashuv. Bu yondashuvda maqollar badiiy matn sifatida, ya'ni obrazlilik, ifodaviylik, allegoriya va metaforalar tizimi orqali tahlil etiladi. Maqollarning ko'pchiligi qisqaligiga qaramay, katta ma'no yuki, kutilmagan obrazli parallellik va estetik ta'sir qobiliyatiga ega⁴³. Misol: “Til – kalit, og'iz – qulf” – bu yerda obrazli qarama-qarshilik orqali so'zning mas'uliyati falsafiy tarzda ifoda etilgan. Bunday yondashuvda maqollar badiiy ijodga ta'sir etuvchi manba sifatida o'rganiladi; estetik funksiya va obrazlilik tahlil qilinadi; qisqa shaklda teran ma'no mujassamligini ko'rsatadi. Baddiylik mezonlari asosidagi tahlil haqida U.To'ychiyev⁴⁴, B.Sarimsoqov⁴⁵ hamda A.Rasulov⁴⁶ning tadqiqotlaridan atroflicha ma'lumot berilgan.

Janriy va uslubiy yondashuv. Adabiyotshunoslikda maqollar aforizm, hikmat, epigramma, nutq birliklari kabi shakllar bilan qiyosiy tahlil etiladi. Bu yondashuv maqollarning janrlararo aloqalari, uslubiy xususiyatlari va badiiy uslub nuqtayi nazaridan tahlil qilinishini ta'minlaydi. Misol: “Qozonga

43 Данилевская Н.В. Методы лингвостилистического анализа / Н.В.Данилевская // Стилистический энциклопедический словарь русского языка; под ред. М. Н. Кожинной. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2006. – (С. 221- 230) – С. 28.

44 Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент, 2011.

45 Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004.

46 Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарк, 2007.

yaqin yursang, qorasi yuqadi” – bu maqolda aforistik uslub, kesatma intonatsiya, va mukammal tuzilish ko‘rinadi.

Intertekstual yondashuv. Maqollar adabiy matnlarda sitata, allyuziya, intertekst, simbol sifatida faol ishlatiladi. Intertekstual yondashuv bunday birliklarning adabiy asardagi funksiyasi, poetik vazifasi va ma’no yaratishdagi roliga e’tibor qaratadi⁴⁷. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida insonning doimo harakatda bo‘lishi lozimligi uqtirilgan maqol ishtirok etgan: “Yurgan daryo, o‘lturgan bo‘ryo emish” dedi Akram hoji (21-b). Bu maqol intertekst sifatida qahramon fikrini ifoda etishda xizmat qiladi. Bunday yondashuning ahamiyati shundaki, maqollar matn ichida semiotik ishora sifatida ishlatilishi; qahramonning nutqiy portreti yaratilishi; maqolning adabiy asarda g‘oyaviy-estetik funksiyani bajarishi tahlil qilinadi.

Ma’naviy-falsafiy yondashuv. Adabiy asarlarda ishlatiladigan maqollar orqali xalqning falsafiy dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari, axloqiy mezonlari ochib beriladi. Bu yondashuv maqollarni adabiy obrazlar, muallif nutqi va mualliflik konsepsiyasi orqali tahlil qiladi⁴⁸.

Mavzuviy-kompozitsion yondashuv. Bu yondashuv maqollarning adabiy matndagi syujet qurilishi, qahramon xarakteri, janr stilistikasi bilan bog‘liq holda tahlil etilishini nazarda tutadi. Xususan, epik, dramatik va lirik asarlarda maqollar qahramon fe‘l-atvorini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa. Maqollarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish ularning badiiy, intertekstual, estetik, ma’naviy va uslubiy funksiyalarini ochib berishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar orqali paremiyalar adabiy matndagi semantik markaz, avtorlik pozitsiyasi, milliy tafakkurning poetik shakllanishi kabi jarayonlarni tadqiq etish mumkin. Bu esa maqollarni faqat folklor yoki til birligi sifatida emas, balki badiiy tafakkurning tipik ifodasi sifatida qabul qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Данилевская Н.В. Методы лингвостилистического анализа / Н.В.Данилевская // Стилистический энциклопедический словарь русского языка; под ред. М. Н. Кожинной. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2006. – (С. 221- 230) – С. 28.
2. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент, 2011.
3. Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004.
4. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
5. Do’smuradova Y. Badiiy matnda intertekstuallik va uning turlari // YOPA. 2024. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnda-intertekstuallik-va-uning-turlari> (дата обращения: 15.07.2025).
6. Ochilova B.M. Axloq falsafasi: / O‘quv qo‘llanma. B.M.Ochilova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Jizzax davlat pedagogika instituti. – Toshkent: “Ijod-print”, 2019. – 160 b.

TURKISTONDA SOVET TA’LIM TIZIMINING SHAKILLANISHI

Bo‘riyev Ibrohim Salohiddin o‘g‘li
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
+998944862222
ibrohimburiyev94@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada 1917–1920-yillarda Turkiston hududida sovet hokimiyati tomonidan ta’lim tizimini siyosiy va mafkuraviy asosda qayta shakllantirish jarayoni tahlil etiladi. 1918–1924-yillarda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar sinfiy yondashuv, ruslashtirish, ta’limni markazlashtirish va yosh avlod ongiga sinfiy kurash g‘oyalarini singdirish kabi vazifalarga qaratilgani ko‘rsatiladi. Tadqiqot sovet ta’lim siyosati tashqi tomondan savodxonlikni oshirgan ko‘rinsa-da, aslida mahalliy xalqning tarixiy-ta’limiy an’analarni izdan chiqarish va mafkuraviy sodiq avlodni shakllantirishga xizmat qilganini asoslaydi.

47 Do’smuradova Y. Badiiy matnda intertekstuallik va uning turlari // YOPA. 2024. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnda-intertekstuallik-va-uning-turlari> (дата обращения: 15.07.2025).

48 Ochilova B.M. Axloq falsafasi: / O‘quv qo‘llanma. B.M.Ochilova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Jizzax davlat pedagogika instituti. – Toshkent: “Ijod-print”, 2019. – 160 b.

XALQ OG‘ZAKI IJODI ORQALI O‘QUVCHILARDA EMPATIYA VA AXLOQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH Axtamova Gulira’no Akram qizi	202
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA MUSTAHKAMLASH MASHQLARINI BAJARISHDA 4K MODULI ASOSIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Maxsiddinova Madina Xudayshukurovna	203
O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA	205
MEDIATA’LIMNING ROLI Suyarqulova Shukrona Behzodovna	205
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH, IJODKORLIK, MUHOJIRAT VA HUKMKORLIK KO‘NIKIMLARINI RIVOJLANTIRISH Shavkatova Shaxrizoda Shavkatovna.....	206
MAQOLLAR BADIY TAFAKKURNING TIPIK IFODASI Kodirova Saodat Abdiraximna.....	208
TURKISTONDA SOVIET TA’LIM TIZIMINING SHAKILLANISHI Bo‘riyev Ibrohim Salohiddin o‘g‘li.....	209
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINI DARS JARAYONIDA FAOLLASHTIRISH USULLARI Bobojonova Nafisa Sobirovna.....	212
BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITUVCHILARINING BILUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Ro‘ziyeva Nigora Kamtarovna.....	214
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURNI SHAKILLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI Nusratillayeva Sevarabonu Rustam qizi	216
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARIGA TABIIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI	219
INTEGRATSIYALASH METODI Hayitmurodova Sug‘diyona Yigitali qizi	219
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IJODIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI F.X.Holikulova.....	220
НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ РОДНОГО ЯЗЫКА И ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ Суярова Гулхаё Комил кизи.....	222
HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATIDA QO‘LLANGAN MA’NAVIY SAN’ATLARDA TIL VA BADIYAT MUSHTARAKLIGI Eshniyozova Gulhayo Hamroqul qizi.....	223
BO‘LAJAK PEDAGOGIYALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING AHAMIYATI Azimova Musharraf Utirovna.....	226
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA TA’LIMIY O‘YIN VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Sidikova Zulfiya, Boltaboyev Norinjon	227
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA ONA TILI VA O‘QITISH SAVODXONLIGINI INTEGRATIV O‘QITISH boboyeva iroda	229
TO‘G‘RAK MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL QILISHDA INNOVATION YONDOSHUV Tinishtikova Baljan Albertovna	231
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GRAMMATIK VA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR Umarova Azizaxon Burxonovna.....	232